

**KIMYO FANLARINI O‘QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISHNING MUAMMOLI JIXATLARI**

O.O‘rinova

Farg‘ona davlat universiteti

Jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta’limning dunyo ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (PT)ga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.

Xozirgi kunda islohiy talablardan biri ta’lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda ta’lim oluvchilarni o‘qitishni jadallashtirish xisoblanadi.

Yurtimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini bosqichma-bosqich va muvaffaqiyatli amalga oshirish ko‘p jihatdan o‘qituvchi faoliyati va uning kasbiy nufuzini oshirish bilan bog‘liq xolda amalga oshirilmoqda.

SHu sababli ham ular o‘z mahoratlarini uzluksiz oshirib borishlari hamda hozirgi kunning yuksak va malaka talablariga mos zamonaviy bilim, ko‘nikma va tajribalarni o‘zlashtirishi, ijodiy mehnat qila olishi zamon talabidir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi muxim islohotlar o‘quv-tarbiya ishlarini butunlay yangicha yondashuvlar asosida tashkil qilish, yuqori sifat ko‘rsatkichiga erishishni talab qiladi.

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish va o‘zlashtirish zarurligi chuqur his qilinib, ularni o‘quv jarayoniga tatbiq qilish borasida keng miqyosda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslari yaratilmoqda, har bir pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, o‘quv jarayoniga tatbiq qilish bo‘yicha yetarli darajada tajribalar to‘planmoqda.

Ta’limni axborot bilan ta’minlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish, uni jahon axborot tizimi bilan bog‘lash, ommaviy axborot vositalarining ta’lim sohasidagi vazifalarini belgilash raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim shartlaridan biridir. Demak, hozirgi asr-informatsion texnologiyalar asri desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga singdirishning quyidagi afzalliklari bor:

-eng avvalo, ta’lim jarayonida kompyuterlar va axborot-kommunikatsiya vositalarining qo‘llanilishi, talabalarning ular bilan bemalol ishlay olishlari pedagogik jarayondagi eng muhim kamchiliklardan hisoblangan sub’ektivizmga yo‘l qo‘ymaydi. Masalan, agar talabaning javobi yoki bevosita o‘zlashtirishini baholash

o'qituvchining talaba shaxsiga munosabati ta'sirida kechgan bo'lsa, mashinalar vositasida beriladigan ma'lumotlar ob'ektiv xarakterga ega bo'ladi;

-kompyuter orqali bolaga yetkazilayotgan ma'lumotni zarurat bo'lganida, qayta - qayta chaqirish va takrorlash imkoniyati ham bor. Bu narsa ayrim talabalarda, guruh sharoitida ishlaganda kuzatiladigan iymonish kabi sifatning namoyon bo'lmasligini ta'minlaydi;

-har bir professor-o'qituvchining o'zigagina xos bo'lgan tushuntirish uslubi, metodik yondashuvi mavjud. Kompyuter vositalaridan foydalanish pedagogik jarayonlar ichidagi samarasiz uslubiyotlarga barham beradi;

-yangi axborotlarni uzatish texnologiyalari bilimlarni o'zida ifoda etib, unda sxemalar, rasmlar, jadvallar, grafik va diagrammalarga keng o'rin beriladi. Bu narsa talabalarda obrazli xotirani ancha jonlantirib, ularning eslab qolish qobiliyatini kuchaytirishi mumkin;

- axborot vositalaridagi ma'lumotlarni disklarga yozib olish va ulardan qayta-qayta foydalanish mumkin. Bu ham vaqtni, ham mablag'ni tejaydi, iqtisodiy jihatdan yuzlab tirajlarda chop etilayotgan kitoblardan arzon bo'ladi. Eng muhimi, manfaatdor auditoriya xohlagan ma'lumotini bir xil sifat va tizimda olishi mumkin bo'ladi.

O'qitish jarayonining samaradorligi va maqsadga muvofiqligi hamda oqilona tashkil etilishi ko'p jihatdan o'qituvchi, texnika va texnologiya, ta'lim iqtisodiyoti, o'qitishni kompyuterlashtirish bilan bevosita bog'liqdir.

Adabiyotlarda "Yangi tartib-qoida", "Yangilik", "Innovatsiya" tushunchalarining ma'naviy mazmunini aniqlashning turlicha talqinlari mavjud. Kimyo o'qituvchilari bilan o'tkazilgan suhbatlar natijalari, ularning aksari qismi o'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha yetarli malakalarga ega emasligini ko'rsatdi.

Kimyo darslarida qo'llash uchun o'zbek tilida yetarli o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratilmaganligi, qolaversa, o'qituvchilarning yangi pedagogik texnologiyalarning mohiyatini anglab eta olmayotganligi sabab bo'lmoqda. Innovatsiya (inglizcha – innovation – innoveyshn yangilik kiritish, yangilik) o'quv-tarbiya jarayonini kechishini va natijasini yaxshilaydigan pedagogik sistemadagi yangilik demakdir. Innovatsiya bu pedagogik sistemani sifat jihatidan takomillashtirish uchun birgalikda olingan g'oyalar, jarayonlar, vositalar, natijalar demakdir. Pedagogik sistemani takomillashtirishning ikkita: intensiv va ekstensiv yo'li bor. Pedagogik sistemani intensiv yo'l bilan rivojlantirish sistemani ichki zahiralari hisobiga, ekstensiv yo'li qo'shimcha quvvatlar (investitsiyalar), - yangi vosita, jihoz, texnologiya, kapital mablag' va shunga o'xshashlar jalb qilishga asoslangan. Ko'p miqdordagi umumiy va xususiy innovatsion loyihalarni tahlil qilish asosida pedagogik innovatsiyalarga quyidagilar kirishi aniqlangan :

1) yangi bo'lmagan, biroq doimo dolzarb bo'lgan hamda o'z imkoniyati tugallanmagan o'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirishning amaliy texnologiyasi va g'oyasi;

2) insonparvarlik pedagogikasi;

3) yangi g'oyalar va axborot vositalari, ommaviy kommunikatsiyalar qo'llashga asoslangan texnologiyalar va boshqalar.

Hozirgi zamon yangilik kiritish jarayonini tahlil qilish uning uch darajasi mavjudligini ko'rsatadi.

1. Pastki darajasi. Unga odatdagicha bo'lmagan nom va formulalar ko'rinishidagi o'zgarishlar (amalga oshirilayotgan jami innovatsiyalarning 80% ini tashkil qiluvchi innovatsiyalar) kiradi.

2. O'rta darajasi. Moxiyatga tegmasdan shaklni o'zgartirish amalga oshirilayotgan (jami innovatsiyalarning 17%ini tashkil qiladigan) innovatsiyalar kiradi.

3. YUqori darajasi. Sistemani yoki uning bosh komponentlarini butunlay o'zgartirish amalga oshirilayotgan(jami innovatsiyalarning atiga 3% ini tashkil qiluvchi) innovatsiyalar kiradi.

Mamlakatimizda pedagogik sistemani intensiv yo'l bilan rivojlantirish bilan bir qatorda ekstensiv yo'lga katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi kundagi o'qitish maqsadidan kelib chiqqan holda O'rta va Oliy kimyo talimining mazmun mohiyati tubdan qayta ko'rib chiqildi, uni amalga oshirish metodlari vosita va shakllarini taklif etish, axborot texnologiyalari asosida o'quvchi va talabalarning bilish faoliyatlarini tashkil etish, shuningdek boshqarish kabi o'qitish nazariyasi va metodikasining dolzarb masalalari ilmiy va pedagogik bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, natijalari bosqichma-bosqich talim tizimiga joriy qilinmoqda.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикаси Таълим тўғрисидаги Қонуни. – Тошкент, 2020.09.23. www.lex.uz.

2. Александр Г.Шайда Становление профессионального мышления будущих специалистов. // ZESZYTY NAUKOWE WYŻSZEJ SZKOŁY TECHNICZNEJ W KATOWICACH ISSN 2082-7016; eISSN 2450-5552 2016, nr 8.–С. 249-262.

3. Асадов Ю.М. Индивидуально-психологические особенности учителя как факторы развития профессионализма Автореф. дис. ... канд. психол. наук. – Ташкент, 2007. -25 с.